EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH
Innovative Academy Research Support Center
UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.uz

"O'YIN" ORTIDAGI O'YLAR

Kamol Hakimov
A.Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7392698

ARTICLE INFO

Received: 20th November 2022
Accepted: 28th November 2022
Online: 30th November 2022

KEY WORDS

Zamonaviy roman, lirik chekinishlar, bolalar o'yinlari, maqollar, lisoniy belgilar, varvarizm, vulgarizm, sheva, siyosiy mavzular.

ABSTRACT

X.Do'stmuhammad hozirgi o'zbek adabiyotining katta ijodkorlaridan biridir.Uning "Bozor","Donishmand Sizif" kabi romanlari,hikoyalari umumiy bir g'oya atrofida yig'ilgan yagona turkum asar degan fikr uyg'otadi.Uning asarlaridagi qahramonlar insoniyat taqdirini,uning yukini yelkasiga ola bilmas, balki, ammo hayot sinovlari, muammolar oldida titramaydigan, qalbi go'zal, samimiy insonlardir. "O'yin" romanidagi Karomat aya, Marvarid kennoyi, Fazli singari obrazlar mana shunday shaxslar timsoli.

Maqola kompozitsion jihatdan ichki qismlarga bo'linadi. Sababiki, roman hajman kattagina va tabiiyki, mavzu ko'lami ham serqirra. Biz aniq bir mavzuni tanlab, shu asosda tahlilni amalga oshirishimiz ham mumkin edi, ammo maqsadimiz "O'yin" romani haqida kengroq, garchi umumiy ko'lamda bo'lsa ham,bir emas, bir qancha masalalarni maqolada yaxlitroq shaklda ifodalashdir.

Yurakda dardi yo'qlarni netarmiz?!
O'zimizdek dilafgor axtarayluk.
(FURQAT)

Ijodkor o'z tasavvurida,orzusida yashayotgan borliqni xayol qilib,uni qalamida barpo etish istagi bilan ijod qiladi. Qalam ahlining ilhom manbayi uni qiynagan muammolardir.Asardagi qahramonlar esa qalamkashning dard-hasratlarini cho'chimay olam uzra doston qiluvchi "men"laridir.

"O'yin" romanida muallif aytmoqchi bo'lgan fikr, dardlari juda ko'p,ammo buni davralarda baralla eshittira olmayotgandek:"Sen bilan sirlashgim keladi.Sen ko'nglimni topa olasan,tushunasan,o'rtoqlaring meni do'st bilmaydi"[1]. "Sen"- bu uning o'quvchilari-sirdoshlari.Xalqimiz orasida "Shoshma,gapni yotig'i bilan tushuntir",degan ibora bor. Muallif go'yoki shu hikmatga amal qilgandek,gapining boshini yoshlardan oladi. Romanning birinchi bobi "Landi-landi" deb nomlanadi. Voqealarga kitobxon o'ziga xos usul bilan "tashrif buyuradi": "Landi-landi,o'yinimiz boshlandi".

[1] X. Do'stmuhammad,O'yin.; Toshkent. Yangi asr avlodi.,2020, 56-bet.

Bola baxtiyorligi uchun, avvalo,oila baxtliligi muhim. Kimnidir bolaligi jannatdagidek,boshqaning ichida yoshligi yig'lab o'tadi. Oilasining aniq bir yashash joyi bo'lmagan bola-Baqo-o'lguday odamovi,Yahyo esa o'lguday uyquchi. Baqoning odamoviligi-uning qo'li kaltaligi,Yahyoning uyquchiligi-uning to'qligi nishonasi. Bolalar ichida Fazli boshqalardan ajralib turadi. N.Dobrolyubovning yozishicha, “Xarakter odam bilan tug’ilmaydi, balki tarbiya vaqtida kasb qilinib, shundan so’ng hayotda yuz bergan tashvish va hayajonlar vaqtida qat’iy ravishda qaror topadi”.[2] Ammo –lekin nazarimizda, xarakterlarning ba’zilari tug’ma bo’ladi. Fazli "kattalarning aytganini ikki qilmagani bilan ich-ichida o'z bilgani bor,tilida "xo'p" desa-da,dilida "yo'q'' deydi". Fazli Baqo singari boshqa do'stlariga nisbatan erta ulg'ayadi,o'y-fikri bolaga xos emas.U "xayoliga tirg'alib keladigan savollarni aytavermaydi,ichiga yutadi,bilar-bilmas gap sotmaydi. Oila davrasida bevaqt uzib qo'yilgan mavzu, odatda,uning ichida davom etadi". Fazlining yaxshi bir odati bor: ojiz odam ustidan kulmaydi, kulganlarni yoqtirmaydi, ko'zi ojiz odamning ko'ziga sira tikkasiga qarolmaydi. Muallifning ham pozitsiyasi Fazli obrazi orqali bo'y ko'rsatadi. Fazli suzishni bilmaydi, do'stlari oldida xijolatli turadi, buning uchun o'zini kechirmaydi,hatto o'zidan bir qadar nafratlanadi. Katta ishlar ostonasida turgan kishi uchun bunchalar o'zini koyish, tergash go'zal bir xislatdir. Fazli "sho'ng'ish-sho'ng'ish" o'yinida faol, ammo "cho'kish-cho'kish" o'yinini aqlan rad etadi. U cho'kishni istamaydi, butkul g'arq bo'lib ketmaslik uchun ozroq bo'lsa-da,suzishni o'rganish shart deb sanaydi. Hech suzishni o'rganolmaydi-o'zini ham kechirmaydi buning uchun. Qalbining tubiga do'stlari uchun oson bo'lgan ushbu "qiyin ish"ni o'zlashtirish masalasini joylab qo'yadi. Fazli kitob mutolaasiga jiddiy kirishadi. "Tom Soyerning sarguzashtlari", "Shum bola","Robinzon Kruzo" asarlarini ishtiyoq bilan o'qib tugatadi.Ko'cha changitib o'ynab yurishdan otasining ishlariga yordam berishni ma'qul ko'radi. Fazli sarguzashtlarga o'ch bola. Urushda "qahramon" bo'lgan Hasan boboyning o'zi tushida ham ko'rmagan jang lavhalarini qiziqib tinglaydi: "Sovuq-q... Otlar, itlar, odamlar tiriklayin muzlab qoldi. Sollat bolalar yugurib borayotgan joyida haykalday qotdi. Daryoni muz qoplagan, Pazli,sani bo'yingcha keladi muzni qalinligi!..".

Shu payt eshik taraqlab ochilib boboyning ayoli Minov opoqi ko'rinadi. Kampir yetib kelmasidan Hasan boboy mavzuni o'zgartirib ulguradi. Chunki aytganlari yolg'on edi-da.-Hasan boboy aldoqchi,-dedi Luti.-Daryoga cho'kkan tankadan hech kim tirik chiqmaydi,aldadilar! Fazli boboning gaplari chin yoki to'qima ekanini o'ylamaydi.U o'ziga kerak ma'lumotlarni oladi,tinglaganlari haqida o'yga botadi,faylasufona yondashuvi bilan borliq va insoniyat haqida xulosalar chiqaradi: "Tanka ... buzadi vayron qiladi,vayron... - Nimani ? -Dunyoni...".

*** *** *** *** ***

Har qanday kitobxon **ONA** obraziga so’zlar ila marjon bilan bezashga harakat qiladi.

"O'yin" romanidagi Karomat aya obrazi qalblarda yana bir bor mehrni mavjlantirgan shunday mehribon ayol timsoli, qora turmushning sinovlarida sinmagan sabr ramzi; farzandi uchun sher

[2]A.Rashidov. Ozbek qissalarida mehnat tasviri.; Toshkent. Fan. 1980, 87-bet.

bo'lgan, ham ota-yu ona bo'lgan, gullarga burkanishi, olqishlar yomg'iridan ust-boshi shalabbo bo'lishiga munosib bo'lgan Ona! U farzandlari bilan mazmuni yo'qchilikka bog'liq bo'lgan "o'yin"lar o'ynaydi: ... uyida qozon osilmagan kunlari "***qorin ochmadi-ochmadi",***surunkasiga qoq sho'rva kunlari "***bexarxasha-bexarxasha***" o'yinini,hamsoyalarnikida tansiq jiz-bizlarning islari dimog'larini yoray deganida ***"tamshanma-tamshanma***" o'yinini o'ynaydi. Siz yurak-bag'ri qon bo'lib turib bolalari uchun baxtiyor bo'lishga intilgan,yuzi farzandi uchun jilmaygan,ammo kun sayin hayotdan umidi so'nib borayotgan ONAni bir tasavvur qiling!..

Furqat yozganidek, “riyozatsiz kishilar bo’lmag’ay g’am xayliga hamdam”. [3] Karomat aya shu kabi tillo ayollardan. U,odatda,bolalarini erta uyg'otmas,ular qancha uzoq uxlashsa,shuncha tinch bo'lardi. Och qorin bilan uxlab yotgan bolalarni,so'ng ularning uyg'onib,Onasidan yegulik so'rashlarini,Onaning esa qanday ko'yga tushib qolishini kitobxon xayoliga keltirar ekan,farovon kunlar uchun "Allohga shukr!" deb yuboradi. Noshukrlik qilgan onlari bir zum ko'z oldidan o'tadi kishining!

- Siz "bacham-bacham" deguncha barchamiz ochdan o'lamiz,aya!

- O'lmaymiz,o'g'lim.Turinglar,otlaninglar, "ko'chish-ko'chish" o'ynaymiz bugun!

Ko'zining qa'rida tomchini yashira olgan ko'z,kula olgan yuz,shubhasiz, umidsiz kishiga oliy dalda! Karomat aya shu zaylda bolalarida ertangi kunga umid uyg'otadi.

*** *** *** *** ***

Xalqimiz orasida "Echkiga jon qayg'u,qassobga-yog' " degandek,birovning yegani noni yi'q, birovning bu bilan ishi yo'q. Kimdir o'ziga qo'nim izlar,kimdir mehr ustiga mehr... Yoshi bir yerga borib qolgan Marvarid kennoyi o'z choli Vaziz posonni yer-u ko'kka ishonmaydi,go'yo bir jonon uning oshig'ini o'g'irlab ketadigandek. - Adasi-i-i ! Mana o'sha so'z,ana sizga mo'jizaning koni! Osmonda emas u ichingizda,tilingizda. Siri bitta-kennoyidek nozlanib ayta bilsangiz,oila sizniki, olam sizniki..., er o'z-o'zingizniki,jon ayoljonlar! Vaziz poson ham qolishmaydi: -Jonidan,onasi... Mana javob,mana mehr ... ,erkakjonlar!

Muallif shu o'rinda bayonning maslahat berish shaklidan foydalanadi; Yosh oilalarga bu ikki oshiq-ma'shuqlardan o'rnak olishga chaqiradi va davom etadi: - Ko'zlar, nigohlar, mehrlar bog'lanadi, qovushadi... - Ertaroq kelasiz-a-a?.. Kennoyi so'zini tugatmay Vaziz posonning muborak kiftlariga g'ubor inganmi-inmaganmi-farqi yo'q, ... ehtirom ila qoqib-siylab qo'yadilar. Xotin kishi erining kiftiga qoqqani-betidan o'pich olgani-da! Bu hali hammasi emas. Vaziz poson uzoqlashgunlaricha kennoyi turgan joylaridan jilmaydilar, farzandlarining qiblagohi bosgan izlarini ko'zlariga to'tiyo qilguday mehr-otashlari tovlanib qadalib turadilar. Yaxshi ko'radiki, kuzatadi, mehri borki, uzila olmaydi. - Ertaroq keling,adasi-i-i !..

Tabiiyki, muhabbat gullari qayta ochilgan poson va ayolining bu kabi qaynoq munosabatlari hammaga ham yoqavermaydi. Nihoyat, Minov opoqining sabri tugaydi: - Be-eshta bolani qatorlashtirib, tag'in "Ertaroq keling"ga balo bormi?! Minov opoqi Marvarid kennoyining joniga nishini suqqani-xarakteri bunday hislar bilan chiqisha olmaydigan o’quvchiga juda yoqib tushadi..

[3] Furqat. Tanlangan asarlar;. Toshkent, G’afur G’ulom, 1975, 103-bet.

Zero, hayajonning ko'pi tafakkur egalariga,vazminroq insonlarga nisbatan yot hissiyotdir. Hayajon yoshlik degan uzukka mos ko'zdir. Shaksizki, er-u xotin bir-birini bu qadar qattiq ardoqlashining yomon yeri yo'q, ammo-lekin shakarning ham ozi shirin, deydilar.

*** *** *** ***

"O'yin" romani 2020-yilda yozilgan. Asar memuar xarakterga ham ega. Muallif tarixning o'zi guvoh bo'lgan qismlarini yoritar ekan, o'z pozitsiyasini zimdan kitobxonga ayon qiladi .O'quvchi buni darrov ilg'aydi. Muallif ushbu asarida bayon etgan tarixiy mavzuga oid xulosalari qanchalar asosli ekanini u bilan zamondosh insonlar ham tasdiqlaydi, yozuvchi bilan hamfikr bo'ladi, xayrixoh bo'ladi. X.Do'stmuhammad zukko shaxs sifatida xalqning dardini teran his qiladi, uning tili bo'ladi, xalqi aytolmagan haqiqatlarni baralla aytadi:

- Xruchop "Odamla uyida mol-hol boqmasin",depti.
- Voy qistalog'-ey!
- Kotta odamlani gapi bilan sani ishing bo'lmasin!
- Naga ishim bo'lmas ekan,oka?Mani tirikchiligim nima bo'ladi?Mahallada shovqillasam,Xruchop Maskovda turib eshitib qoladimi?!
- Eshitadi,eshitgani uchun ham kottakon-da!
- U Maskovda kottakon bo'lsa,man uyimda kottaman!
- Yum! Yum,dedim.

To'la haqiqat ufurib turgan ushbu satrlarni o'qir ekansiz, beixtiyor M.Yusufning "Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar..." yoki Sh.Rahmonning "Jangda o'lgan emas biror bahodir, Bari halok bo'lgan xiyonatlardan" qatralari yodga tushadi. Ha,bir xalqning chin qudrati-uning BIRLIGI,HAMJIHATLIGi bilan! Axir, "haqiqat so'zini ayta bilmaslik so'z haqiqatiga xiyonat qilish sanaladi".[4]

Asarni ***memuar xarakterga*** ega roman, dedik. Quyidagi voqealar ham yozuvchi ko'z o'ngida, u yashagan davrda yuz beradi: bahorning kech kelishi, umuman, insonning tabiatga salbiy ta'siri yanada ortib borayotgani, "sichqon, kalamush, ko'rshapalakni paqqos tushirgan odam"lardan yaxshilik kutib bo'lmasligi, eski mahallalarning kunpayakun bo'layotgani, koronavirus muammosi... Muallif shunchaki tarixni yozmaydi, kitobxonning siyosiy ongi yuksalishi uchun dars o'tadi, voqealarga obyektiv munosabat bildiradi. Haqiqatlarni fosh etishni istayveradi, shunga intilaveradi. Yozuvchi nazdida, sodir bo'layotgan ko'ngilsizliklarda bosh aybdor- INSON! Uning ko'p ishlari o'ylovsizlarcha amalga oshirilmoqda. Amalga oshgan ishlar esa xatolikdir. Charx teskari aylanmoqda, yuz berayotgan voqealarni aql ham, hissiyot ham inkor qiladi. Shuning ifodasi o'laroq quyidagi fikrlarga duch kelasiz:"Qumursqada tinim yo'q, odamzodda qo'nim...Polaponlar och, och... Ona parvozda. Yemish qayda, nasiba qayda?!Tong, qora darparda... Quyosh tulkiga tarmashgan, taka biyaga irg'igan, qarg'a qarchig'ayga, toshbaqa ilonga elakishgan. Oqqush lochinni mo'ljalga olgan!.." .

Asarning boshlang'ich bobida bolalarning "qutqarmachoq"

o'yini tasviri mavjud. Bunga monand holda so'nggi bobda xalqning Xruchop tuzumidan qutulgani bayon etiladi. Bu ikki bobning nomlanishida ham ramziylik bo'lsa ajabmas .Zero, Xalqning xalqlik belgilaridan biri o'z yerini, o'z erkini qutqarib qola

[4] B. Karimov. Ruhiyat alifbosi. Toshkent.; G'afur G'ulom, 2018, 3-bet.

bilishida hamdir. O'zbek Xalqi o'z Ozodligini zulm changalidan qutqara olgan va uni toabad himoya qila oladigan qudratga ega Xalqdir, shaksiz!

References:

1. X. Do’stmuhammad,O’yin.; Toshkent. Yangi asr avlodi.,2020, 56-bet.
2. A.Rashidov. Ozbek qissalarida mehnat tasviri.; Toshkent. Fan. 1980, 87-bet.
3. Furqat. Tanlangan asarlar;. Toshkent, G’afur G’ulom, 1975, 103-bet.
4. B. Karimov. Ruhiyat alifbosi. Toshkent.; G’afur G’ulom, 2018, 3-bet.